QASHQADARYO VILOYATI
KASBI TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

180600, Kasbi tumani, Mustaqillik ko‘chasi. Faks (+99875) 642-24-66, N.Boyturdiyev@exat.uz

2023 - yil 18 - dekabr 273-4-61-Q/23 Kasbi tuman hokimligi

Tumanda 2024-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekistan Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda – Nizom) muvofiq transport vositalarining 2023-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan

yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1 mart- 30 iyunda;

ikkinchi marta – 1 sentabr- 31 oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1 yanvar – 31 dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek,

transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimining 2022-yil 15-dekabrdagi 411-4-61-Q/22-sonli “Tumanda 2023-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimning qurilish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari T.Tursunov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **T.A.Meyliyev**

Kasbi tuman hokimining
2023-yil 18-dekabrdagi
273-4-61-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi

T A R K I B I

Komissiya raisi :

G‘.Husanov	Kasbi tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i, kapitan

Komissiya a‘zolari:

A.Odilov	Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasi sektor mudiri
Z.Hamidov	Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
M.Cho‘liyev	Tuman Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi boshlig‘i
J.Baratov	Tuman “Vatanparvar” MKT rahbari

Komissiya kotibi:

O‘.Hayitov	Tuman ichki ishlar bo‘limi YHXB MMKCHB inspektori

Kasbi tuman hokimining
2023-yil 18-dekabrdagi
273-4-61-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish

J A D V A L I

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Transportlar soni
1	Kasbi tuman hokimligi	17.01.2024	9:00dan 18:00gacha		5
2	Vatan Savdo I.CH.X.T.T K	18.01.2024	9:00dan 18:00gacha		1
3	Mashrabi Soniy X.S.I.CH.K	19.01.2024	9:00dan 18:00gacha		1
4	Denov Eksport Trans MCHJ	20.01.2024	9:00dan 18:00gacha		4
5	Og‘abek Faxriddinov Savdo Trans MCHJ	21.01.2024	9:00dan 18:00gacha		12
6	Dilnura Fazosi Kelajak Sari MCHJ	22.01.2024	9:00dan 18:00gacha		10
7	Ixlos Xalol Pishloq ICHK	24.01.2024	9:00dan 18:00gacha		2
8	Pardayeva Sharofat Xususiy Biolaboratoriyasi	25.01.2024	9:00dan 18:00gacha		1
9	Normuminov Sherzod Axmedovich SICHXK	26.02.2024	9:00dan 18:00gacha		1
10	Kumushbibi Trans Siti Xus Kor	27.02.2024	9:00dan 18:00gacha		2
11	Maxmudxon savdo trans MCHJ	28.01.2024	9:00dan 18:00gacha		18
12	Tursunov Ravshanxon Temirovich Fermer Xo‘jaligi.	01.02.2024	9:00dan 18:00gacha		1
13	Kasbi Obodonlashtirish Korxonasi	02.02.2024	9:00dan 18:00gacha		12
14	"GIGANT BUSINESS" mchj	03.02.2024	9:00dan 18:00gacha		7
15	Xoliqov Murodbek Rustamovich Fermer Xo‘ja	04.02.2024	9:00dan 18:00gacha		1
16	Kasbi Erkin Trans MCHJ.	05.02.2024	9:00dan 18:00gacha		22
17	At Xalq banki Kasbi fil	09.02.2024	9:00dan 18:00gacha		4

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Transportlar soni
18	"Nurafshon Yo‘l" MCHJ	16.02.2024	9:00dan 18:00gacha		57
19	"DEEP DREAM" MCHJ	01.03.2024	9:00dan 18:00gacha		10
20	"Setora Xalilova" MCHJ	05.03.2024	9:00dan 18:00gacha		7
21	"Jamshid Xolmirza O‘g‘li Bog‘dorchilik" f/x	07.03.2024	9:00dan 18:00gacha		1
22	Kasbi tuman MK Vatanparvar O‘STK	10.03.2024	9:00dan 18:00gacha		11
23	Anvarjon Suyunov MCHJ	14.03.2024	9:00dan 18:00gacha		1
24	Ilyosbek Kamolov fermer xo‘jaligi	18.03.2024	9:00dan 18:00gacha		1
25	Ibragimov Shomurod Ibragimovich XK	31.03.2024	9:00dan 18:00gacha		1
26	Zamin Saxobat Bunyodkori MCHJ	12.04.2024	9:00dan 18:00gacha		1
27	OOO"Kasbi G‘isht" MCHJ	18.04.2024	9:00dan 18:00gacha		1
28	Kasbi Ixtisoslashtirilgan ta’mirlash xususiy korxonasi	19.04.2024	9:00dan 18:00gacha		1
29	"Novqat Trans Stroy Plyus" xus kor	04.05.2024	9:00dan 18:00gacha		2
30	Sanoat savdo ishlab chiqarish firmasi	06.05.2024	9:00dan 18:00gacha		2
31	"Irisov Nodirbek To‘rayevich" fer.xo‘ja	12.05.2024	9:00dan 18:00gacha		1
32	Maymanoq Shifo Maskani Oilaviy Kor	14.05.2024	9:00dan 18:00gacha		1
33	Ulgurji Chakana Tayorlov Kurilish Tamirlash Korxonasi	18.05.2024	9:00dan 18:00gacha		1
34	Kasbi Elektromontajchi Xususiy Firma	20.05.2024	9:00dan 18:00gacha		3
35	Usmonov Shaxzod Abdukarimovich Sabzavodchilik f/x	23.05.2024	9:00dan 18:00gacha		1
36	Xo‘jaxayron Farovoni Xususiy Firmasi	25.05.2024	9:00dan 18:00gacha		1
37	Arabova Zamira Ziyodovna xususiy korxonasi	01.06.2024	9:00dan 18:00gacha		1
38	Kasbigazsuvqurilish MCHJ	02.06.2024	9:00dan 18:00gacha		1

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Transportlar soni
39	"Siddikbek Uktam Ugli savdo ishlab chik kor	06.06.2024	9:00dan 18:00gacha		1
40	Yer tuzish kuchmas mulk kadastir Kasbi filiyali	08.06.2024	9:00dan 18:00gacha		1
41	Sarvar-Nurbek-Elbek xus korxonasi	10.06.2024	9:00dan 18:00gacha		1
42	Shodmon Muqimov Bog‘ fer xo‘jaligi	13.06.2024	9:00dan 18:00gacha		1
43	Indorama Agro MCHJ	15.06.2024	9:00dan 18:00gacha		167
44	Oqqamish Binokori Xususiy Korxonasi	17.06.2024	9:00dan 18:00gacha		1
45	Kasbimaxsussuvpudrat MCHJ	20.06.2024	9:00dan 18:00gacha		4
46	Usimlikbioximiya Biolabaratoriyasi	24.06.2024	9:00dan 18:00gacha		2
47	Suxrob Sa’dullayev Xususiy Korxonasi	27.06.2024	9:00dan 18:00gacha		1
48	Qashqadaryo vil.Uquv i/chiq Kom. Kasbi fil.	29.06.2024	9:00dan 18:00gacha		4
49	"Trans Komilon" fer.xo‘ja	01.07.2024	9:00dan 18:00gacha		1
50	"FARMER PORTNER" xus korxonasi	04.07.2024	9:00dan 18;00gacha		1
51	"Saidnabiyeva Shaxlo Sulaymonovna" fer xo‘j	11.07.2024	9:00dan 18:00gacha		3
52	"Amrillo Qurbonov" fer xo‘j	13.07.2024	9:00dan 18:00gacha		1
53	"Naqshab Ixtisoslashgan maxsus qurilish"XK	18.07.2024	9:00dan 18:00gacha		1
54	"Yangi ish o‘rin tashkil etish rag‘bat hud jam"	20.07.2024	9:00dan 18:00gacha		1
55	"Ollot yog‘dusi" XSICHF	25.07.2024	9:00dan 18:00gacha		2
56	"Kuxi Samoi Nur" Xus firmasi	28.07.2024	9:00dan 18:00gacha		1
57	"Primov Raxmat Axmadovich" fermer xo‘jalig	01.08.2024	9:00dan 18:00gacha		2
58	Maktabgacha ta’lim bo‘limi	05.08.2024	9:00dan 18:00gacha		2
59	"Choriyev Karim Doniyorovich" fer xo‘jaligi	12.08.2024	9:00dan 18:00gacha		1
60	"Qurbon ota " fermer xo‘jaligi	16.08.2024	9:00dan 18:00gacha		2

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Transportlar soni
61	"Mega Denta Med"xususiy korxonasi	20.08.2024	9:00dan 18:00gacha		2
62	"Dilafruz" MCHJ	28.08.2024	9:00dan 18:00gacha		2
63	"Suyarov Ilhom Baratovich" XSICHB	05.09.2024	9:00dan 18:00gacha		2
64	"Jayxun Otamurodov" fermer xo‘jaligi	12.09.2024	9:00dan 18:00gacha		1
65	"Kasbit tuman toza havo" DUK	19.09.2024	9:00dan 18:00gacha		17
66	"BRICK PRODUCING"MCHJ	27.09.2024	9:00dan 18:00gacha		2
67	"Komiljon Latipovich" XK	03.10.2024	9:00dan 18:00gacha		1
68	Rivoj Kapital MKT	06.10.2024	9:00dan 18:00gacha		4
69	Merkuriy Globus MCHJ	10.10.2024	9:00dan 18:00gacha		2
70	Og‘abek MCHJ	13.10.2024	9:00dan 18:00gacha		6
71	Kasbi tuman Agrokimyoximiya MCHJ	17.10.2024	9:00dan 18:00gacha		8
72	"Rayimov Shirin" fermer xo‘jaligi	27.10.2024	9:00dan 18:00gacha		1
73	Nasaf Tran Qurilish Invest MCHJ	31.10.2024	9:00dan 18:00gacha		2
74	Maymanoq Stomklass MCHJ	01.11.2024	9:00dan 18:00gacha		4
75	Feruzbek fermer xo‘jaligi	04.11.2024	9:00dan 18:00gacha		4
76	Kasbi tuman Sanistansiya bo‘limi SES	07.11.2024	9:00dan 18:00gacha		5
77	Bisyor trans MCHJ	14.11.2024	9:00dan 18:00gacha		3
78	Ro‘ziyev Ro‘ziboy Sayfullayevich Fer.xo‘ja	17.11.2024	9:00dan 18:00gacha		2
79	Kasbi tuman Sanistansiya bo‘limi SES	21.11.2024	9:00dan 18:00gacha		2
80	Qamashi Porloq kelajagi f/xo‘jaligi	24.11.2024	9:00dan 18:00gacha		1
81	Ramziddin Polvon dehqon xo‘jaligi	28.11.2024	9:00dan 18:00gacha		1
82	Kasbi tumani Xalq ta’limi bo‘limi	01.12.2024	9:00dan 18:00gacha		1
83	Kasbi tumani Xalq ta’limi bo‘limi	02.12.2024	9:00dan 18:00gacha		1

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Transportlar soni
84	Kasbi tumani Xalq ta’limi bo‘limi	05.12.2024	9:00dan 18:00gacha		1
85	Bolalar va o‘smirlar futbol kulubi	09.12.2024	9:00dan 18:00gacha		1
86	Mug‘lon Jamoa korxonasi	15.12.2024	9:00dan 18:00gacha		1
					488